



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i06.057>

UDK: 9.93.930.930:1

ORCID: 0009-0005-4213-0684

SOVET IQTISODIY SIYOSATINING EKOLOGIK OQIBATLARI: O'ZBEKISTON SSR TAJRIBASI

Orziyeva Kamola Sayidmurodovna

Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi

kafedrası maqsadli tayanch doktoranti

k.s.orzieva@buxdu.uz +99893 685-26-89

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosatning ekologik oqibatlari tarixiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqot sanoatlashtirish, og'ir sanoatning ustuvor rivoji, paxta monokulturası, sug'oriladigan yerlarning kengayishi, hamda neft-gaz konlarini o'zlashtirish jarayonlarining atmosfera, suv resurslari va qishloq xo'jaligiga ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ustuvor bo'lgan reja-iqtisod tizimida ekologik barqarorlik e'tibordan chetda qolgani asoslanadi. Hududiy misollar, statistik ma'lumotlar va tarixiy hujjatlar tahlili orqali sabab-oqibat bog'liqligi sharhlanadi.

Kalit so'zlar. ekologik inqiroz, industrializatsiya, paxta monokulturası, Orol dengizi, kimyo sanoati, ifloslanish, suv resurslari, neft-gaz sanoati, rejalashtirilgan iqtisodiyot, sanoat chiqindilari.

Аннотация. В статье на основе историко-аналитического подхода исследуются экологические последствия экономической политики, реализованной в Узбекской ССР. Анализируется влияние процессов индустриализации, приоритетного развития тяжелой и химической промышленности, хлопковой монокультуры, расширения орошаемых земель и освоения нефтегазовых месторождений на атмосферу, водные ресурсы и сельское хозяйство. Обосновывается, что в рамках планово-экономической системы, ориентированной на показатели производства, экологическая устойчивость оставалась вне поля приоритетного внимания. Причинно-следственные связи раскрываются на основе анализа региональных примеров, статистических данных и исторических документов.

Ключевые слова: экологический кризис, индустриализация, хлопковая монокультура, Аральское море, химическая промышленность, загрязнение, водные ресурсы, нефтегазовая промышленность, плановая экономика, промышленные отходы.

Abstract. This article examines the environmental consequences of economic policies implemented in the Uzbek SSR using a historical-analytical approach. The study analyzes the impact of industrialization, the prioritized development of heavy and chemical industries, cotton monoculture, the expansion of irrigated land, and the exploitation of oil and gas fields on the atmosphere, water resources, and agriculture. It argues that within the framework of a production-oriented planned economic system, environmental sustainability was largely neglected. Cause-and-effect relationships are explored through the analysis of regional cases, statistical data, and historical documents.

Keywords: environmental crisis, industrialization, cotton monoculture, Aral Sea, chemical industry, pollution, water resources, oil and gas industry, planned economy, industrial waste.

KIRISH. Sovet davrida O‘zbekiston SSR hududida olib borilgan iqtisodiy siyosat sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirgan bo‘lsa-da, uning ekologik oqibatlari yetarli darajada hisobga olinmagan. Og‘ir sanoatning rivojlantirilishi, paxta monokulturasini va sug‘oriladigan yerlarning kengaytirilishi atmosfera havosi, suv resurslari, hamda tuproq holatiga kuchli antropogen bosim keltirib chiqardi. Natijada respublika miqyosida uzoq muddatli ekologik muammolar va inqirozlar shakllandi.

Mazkur mavzu bo‘yicha ayrim jihatlar o‘rganilgan bo‘lsa-da, sovet iqtisodiy modelining ekologik oqibatlarini respublika iqtisodiy hayoti bilan uzviy bog‘liq holda tizimli tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi sovet davrida O‘zbekiston SSRda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosatning ekologik oqibatlarini tarixiy-tahliliy yondashuv asosida ochib berishdir. Maqolada sanoat va agrar siyosatning ekologik ta‘siri, uning iqtisodiy oqibatlari hamda mazkur tarixiy tajribaning bugungi barqaror rivojlanish siyosati uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston SSRda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat va uning ekologik oqibatlarini yorituvchi ilmiy adabiyotlarga hamda arxiv ma‘lumotlariga tayangan. Reja-iqtisod modeliga asoslangan sanoatlashtirish, qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi va sug‘orish tizimlarining kengaytirilishi masalalari sovet davri tadqiqotlarida asosan ishlab chiqarish samaradorligi nuqtayi nazaridan talqin qilingan. Biroq, XX asrning 70-80-yillaridan boshlab iqtisodiy siyosatning ekologik oqibatlariga nisbatan tanqidiy yondashuv kuchaydi. Xususan, B.Kenjaboyev, M.Mardiyev, A.Amonov, K.Rahmatov, K.Lapkin, E.Rahimovlarning ishlarida atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining tanazzuli, tuproq sho‘rlanishi, Orol dengizi muammosi irrigatsiya va agrar siyosatning tizimli natijasi sifatida baholangan.

Mustaqillik yillarida bu masalalar yanada chuqur o‘rganilib, X.Yunusova, G.Raximova tadqiqotlarida sanoat va kimyo ishlab chiqarishining ekologik ta‘siri, sanoat chiqindilarining suv havzalari, tuproq va aholi salomatligiga salbiy ta‘siri tahlil qilingan. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda esa Markaziy Osiyoda sovet davrida olib borilgan iqtisodiy siyosat ekologik samaradorlik

nuqtayi nazaridan baholanib, A.Levitanus, M.Dabrowskiy, R.Pomfretlarning tadqiqotlarida resurslardan foydalanish strategiyalari va ekologik cheklovlar o‘rtasidagi nomuvofiqliklar asoslangan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar sovet iqtisodiy siyosatining ekologik oqibatlarini alohida jihatlar bo‘yicha yoritgan bo‘lsa-da, ularni respublika iqtisodiy hayoti bilan uzviy bog‘liq holda kompleks tarixiy-tahliliy yondashuv asosida umumlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

NATIJALAR. Markazlashtirilgan reja-iqtisod tizimida ishlab chiqarish hajmlarini oshirish asosiy vazifa bo‘lib, ekologik muhofaza masalalari ikkilamchi ahamiyat kasb etgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

- paxta monokulturasiga asoslangan qishloq xo‘jaligi Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv resurslaridan haddan tashqari foydalanishga olib kelib, sug‘orish tizimlarining nomukammalligi tuproq sho‘rlanishini kuchaytirgan;

- kimyo, energetika va neft-gaz sanoatining jadal rivoji ekologik cheklovlar hisobga olinmagan sharoitda amalga oshib, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishini kuchaytirgan;

- daryo oqimining qisqarishi mintaqaviy iqlim o‘zgarishlari, biologik xilma-xillikning kamayishi va aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolarni kuchaytirgan.

Umuman, natijalar sovet iqtisodiy modelida ekologik omillar rejalashtirishning ajralmas qismi bo‘lmaganini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA. Ikkinchi jahon urushi O‘zbekiston SSRning ekologik holatida ma’lum bir darajada ta’sir qilgan tarixiy omil sifatida baholanadi. Ittifoqning Yevropa hududlaridan yuzdan ortiq sanoat korxonalarining favqulodda tartibda O‘zbekistonga ko‘chirilishi respublikada sanoat ishlab chiqarishining tez sur‘atlarda shakllanishiga zamin yaratdi. Biroq urush sharoitida ishlab chiqarishni imkon qadar qisqa muddatda ishga tushirish muhim vazifa etib belgilanganligi sababli, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid masalalar, jumladan gaz va changni ushlovchi filtrlarni o‘rnatish masalasi kun tartibiga qo‘yilmadi. Natijada Toshkent shahri va Farg‘ona vodiysi aholisi ilk bor sanoat chiqindilari, oltingugurt oksidlari bilan to‘yingan havoning salbiy ta’siriga uchradi.

Respublika iqtisodiy rivojlanishi asosan og‘ir sanoat tarmoqlarini kengaytirishga yo‘naltirilib, keyinchalik ekologik xavf yuqori bo‘lgan hududlar shakllana boshladi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Navoiy va Chirchiqdagi kimyo sanoati korxonalari, shuningdek, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishi atmosferaga katta hajmda oltingugurt dioksidi, azot oksidlari va boshqa zararli moddalarning chiqarilishiga olib keldi. Havoda qo‘rg‘oshin va kadmiy kabi og‘ir metallarning paydo bo‘lishi sanoatlashtirish jarayoni ekologik muhitga tobora kuchayib borayotgan bosim o‘tkazayotganini yaqqol ko‘rsatdi.


Buxoro-Xiva hududida tabiiy gaz konlarining o‘zlashtirilishi ham yangi sanoat yo‘nalishining shakllanishiga olib keldi. Gaz quvurlari, kompressor stansiyalari va burg‘ilash ishlari tuproq qatlamining buzilishi, yer osti suvlariga ta’sir ko‘rsatishi, hamda yonilg‘i chiqindilari orqali havoning ifloslanishini kuchaytirdi. 1970-1980-yillarda yong‘inlar, gaz

sizishlari va yoqilg‘i chiqindilarini nazorat qilish darajasi past bo‘lgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Xususan, “Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi, Navoiy tog‘-metallurgiya kombinati, elektrokimyo va sement zavodlari yiliga yuz ming tonnadan ortiq zaharli moddalarni atmosferaga chiqargan [1.2].

Sanoat faoliyatining ekologik oqibatlarini suv resurslari holatida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Jumladan, Chirchiq traktor zavodiga oid tergov materiallarida zaharli moddalar chiqindi maydonlarida saqlanib, havoga tarqalayotgani qayd etilgan [2.4]. Shuningdek, ko‘plab sanoat va chorvachilik obyektlarida tozalash inshootlari mavjud bo‘lmagani sababli ishlab chiqarish chiqindilari daryolar va xandaqlarga oqizilgan. Sirdaryo daryosida zaharli moddalar to‘planib borayotgani qayd etilgan bo‘lsa-da, bu borada samarali tashkiliy choralar ko‘rilmagan. Zarafshon daryosi esa ayniqsa “Navoiyazot” hududida kuchli ifloslanishga uchrab, fenollar, ammoniy va nitrit azotining yuqori konsentratsiyalari bilan tavsiflangan [3.11]. Bu holat 1980-yillarning oxiriga kelib respublikada suv resurslari inqirozi sanoat korxonalari faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, sanoat chiqindilarini qisqartirishga qaratilgan ayrim choralar natijasida atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmi qariyb 20 ming tonnaga qisqargan. Natijada chang va oltingugurt gazi bilan ifloslanish 3,5 baravar, azot ikki oksidi bo‘yicha 3 baravar, ammiak bo‘yicha esa 2,5 baravar kamaygan. Biroq, respublika shaharlarida mavjud bo‘lgan 186 ta gaz va changni ushlovchi tozalash inshootlarining bir qismi nosoz, yoki yetarli darajada samarali bo‘lmagan [4.57]. Ayniqsa, sement sanoatida tozalash tizimlarining nosozligi hudud ekologik holatiga jiddiy xavf tug‘dirishda davom etdi. Ekologik muammolarning chuqurlashuvi sovet iqtisodiyotining tarkibiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq edi. 1988-yilda milliy daromadning atigi 1 foizga o‘shishi uchun material sarfining 29 foizga oshishi talab qilingani ishlab chiqarishning resurs sig‘imi nihoyatda yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy tuzilmaning energetika, metallurgiya va tog‘-kon kabi “ifloslantiruvchi” tarmoqlarga yo‘naltirilgani antropogen yuklamaning keskin oshishiga olib keldi [5.42]. Natijada foydali qazilmalarni yirik

Chirchiq shahrida atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar tarkibi
(1980-yillar boshi)




miqyosda undirish, ularni qayta ishlash va yo‘qotish ekologik muvozanatning izdan chiqishiga sabab bo‘lib, bu jarayon respublika iqtisodiy hayotiga uzoq muddatli salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

1-rasm. Chirchiq shahrida atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar tarkibi (1980-yillar boshi).

Atmosfera ifloslanishining asosiy manbai sifatida “Elektroximprom” ishlab chiqarish birlashmasi ajralib turadi: umumiy chiqindilarning 80 foizdan ortig‘i aynan ushbu korxona hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ifloslantiruvchi moddalar tarkibida uglerod oksidining ustun ulushi (38%) hamda noorganik chang (25,6%) va ammiak (20,7%) ning yuqori ko‘rsatkichlari shaharda sanoat faoliyatining ekologik yuklamasi haddan tashqari zichlashganini ko‘rsatadi [6.134]. Ushbu holat sovet davrida ekologik monitoring muammo ko‘lamini qayd etgan bo‘lsa-da, uni tezkor va samarali bartaraf etish mexanizmlari yetarli darajada ishlamaganini tasdiqlaydi.

Sanoat obyektlarini joylashtirish jarayonida ekologik xavfsizlik va hududlararo ta‘sir omillari rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmagan. Sanoatni tezkor rivojlantirish va ishlab chiqarish quvvatlarini maksimal darajada oshirish - tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar, ayniqsa transchegaraviy ifloslanish oqibatlari ikkilamchi masala sifatida baholangan. Buning natijasida sanoat chiqindilarining faqat ishlab chiqarish obyekti joylashgan hudud bilan cheklanib qolmasdan, qo‘shni respublika va viloyatlarga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishi e‘tibordan chetda qolgan. Jumladan, Tojikiston alyuminiy zavodidan ajralib chiqqan ftor gaz cho‘kmasining O‘zbekiston SSRning Surxondaryo viloyati, xususan, Sariosiyo tumani qishloq xo‘jaligiga yetkazgan zarari ushbu yondashuvning amaliy oqibatlarini yaqqol namoyon etadi.



Kimyoviy ifloslanish natijasida uzumchilik, bog‘dorchilik va ipakchilik kabi an‘anaviy tarmoqlarda hosildorlikning keskin pasayishi kuzatilib, mahsulot sifati izdan chiqqan [2.4]. Bu holat ekologik omillarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini va biologik resurslarning tiklanish imkoniyatlari cheklanganini ko‘rsatadi.

2-rasm. Ftor gazi cho‘kmasi ta‘sirida qishloq xo‘jalik hosildorligining pasayishi

Mazkur jarayonning muhim jihati shundaki, ekologik zarar qisqa muddatli emas, balki uzoq muddatli va tizimli xarakterga ega bo‘lgan. Kimyoviy moddalar tuproq va o‘simliklarda to‘planib, ekotizimning tabiiy muvozanatini buzgan, hamda ishlab chiqarish jarayonlarini izchil ravishda tanazzulga olib kelgan. Natijada qishloq xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan aholi qatlamlarining daromad manbalari qisqargan, hududning iqtisodiy barqarorligi zaiflashgan.

Ushbu holat sovet iqtisodiy modelida ekologik barqarorlik tamoyillarining yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi. Reja-iqtisod tizimida ishlab chiqarish natijalari miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali baholangan bo‘lib, ekologik zararlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari hisob-kitoblarga kiritilmagan. Shu bois Sariosiyo tumani misolida kuzatilgan ekologik va iqtisodiy yo‘qotishlar sovet davri sanoat siyosatini faqat ishlab chiqarish samaradorligi nuqtayi nazaridan emas, balki ekologik va hududiy xavfsizlik mezonlari asosida qayta baholash zarurligini ko‘rsatadi. Bu tarixiy tajriba bugungi barqaror rivojlanish konsepsiyasida ekologik omillarni iqtisodiy rejalashtirishning ajralmas qismi sifatida ko‘rish, transchegaraviy ekologik xavflarni boshqarish va mintaqaviy manfaatlarni muvofiqlashtirish muhimligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Sovet iqtisodiy siyosatida paxta monokulturasida strategik vazifaga aylantirilishi O‘zbekiston SSR hududida sug‘oriladigan yerlarning keskin kengayishiga olib keldi. Qisqa muddatda paxta xom ashyosi hajmini oshirish maqsadida amalga oshirilgan ushbu siyosat natijasida sug‘oriladigan maydonlar ikki martadan ko‘proq kengaydi. Amudaryo va Sirdaryodan tizimsiz ravishda suv olish, yirik irrigatsiya loyihalari — Qoraqalpog‘iston kanallari, Qarshi magistral kanali, Amu-Buxoro sug‘orish tizimining barpo etilishi daryo suvlarining tabiiy oqimini keskin kamaytirdi. Bu holat nafaqat Orol dengizi havzasida, balki respublika miqyosida suv resurslari muvozanatining buzilishiga sabab bo‘ldi.


Suv resurslariga tushgan bosimning kuchayishi hududiy darajada ham o‘ziga xos ekologik va iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi. Masalan, Navoiy viloyatida sanoat va agrosanoat faoliyatining jadallashuvi Zarafshon daryosi havzasi, hamda yer osti suvlarining ifloslanish xavfini kuchaytirdi. Qishloq xo‘jaligida pestitsid, hamda agrokimyoviy moddalarni me‘yorlardan chetga chiqib qo‘llash suvlarning ikkilamchi ifloslanishini kuchaytirdi. Shu bilan birga, “Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi, elektrokimyozavodi va boshqa sanoat korxonalarining xo‘jalik-ombor infratuzilmalari yer osti suvlarining kimyoviy ifloslanishiga sabab bo‘lib, suv resurslarining xo‘jalik va ichimlik ahamiyatini pasaytirdi [7.59]. Mazkur jarayonlar Orol dengizi inqirozining shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi.

Orol fojiasining tub ildizlari sobiq Ittifoqning Markaziy Osiyo va Qozog‘iston hududlarida olib borilgan xato iqtisodiy rivojlanish strategiyasida mujassam bo‘lib, bu strategiya tayyor mahsulot ishlab chiqarishga emas, balki qishloq xo‘jaligi xom ashyosi hajmini maksimal darajada oshirishga yo‘naltirilgan edi [8.194]. Demografik siyosatning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, ekologik cheklovlarga beparvo munosabat, hamda suv resurslarining vazirliklararo monopoliyasi sharoitida boshqarilishi vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. Sug‘orish

tizimlarining noto‘g‘ri loyihalaniishi, sifatsiz qurilishi va samarasiz boshqarilishi tarixda misli ko‘rilmagan tezlikda kengaygan sug‘oriladigan maydonlar bilan birgalikda Orol inqirozini chuqurlashtirdi.

Orol dengizining qurib borishi va Orolbo‘yi hududining tabiiy salohiyati pasayishi respublika iqtisodiy hayotiga sezilarli zarar yetkazdi. Iqtisodiy yo‘qotishlar, avvalo, baliqchilik, ondatra yetishtirish va mo‘ynachilik tarmoqlarining inqirozi bilan namoyon bo‘ldi. Iqlimning keskin kontinental xususiyat kasb etishi natijasida Qoraqalpog‘iston ASSRning shimoliy hududlarida qariyb 100 ming gektar maydonda paxta yetishtirish to‘xtatilib, kamroq samarador ekinlar bilan almashtirildi. Daryo oqimining minerallashuvi va Janubiy Orolbo‘yida, jumladan, Xorazm vohasi hamda Turkman SSRning Toshovuz viloyatida paxta maydonlarining sho‘rlanishi oqibatida yiliga kamida 150 ming tonna paxta hosili yo‘qotildi [9.64].

Orol tubida hosil bo‘lgan tuz qatlaminin Qashqadaryo, Xorazm va Toshovuz viloyatlari ekin maydonlariga tarqalishi yerlarning yaroqsiz holga kelishiga sabab bo‘lib, O‘zbekiston qismidagi Orolbo‘yida kamida 130 million so‘mlik iqtisodiy zarar keltirgan [10.3]. Ushbu ekologik oqibatlarni yumshatish maqsadida “Aralvodstroy” birlashmasi orqali ittifoq byudjetidan har yili katta mablag‘lar ajratilgan bo‘lsa-da, bu choralar asosan kompensatsion xarakterga ega



bo‘lib, muammoning tizimli ildizlarini bartaraf etishga qaratilmagan edi [11.3]. Qayta qurish yillarida ekologik falokat ochiq tan olingan bo‘lsa-da, ko‘rilgan choralar o‘zaro muvofiqlashtirilmagan va uzoq muddatli iqtisodiy samarani ta‘minlay olmadi.

3-rasm. Ishlab chiqarish bosimi va ekologik oqibatlar o‘rtasidagi dinamik bog‘liqlik (1970–1990)

XULOSA. XX asrning 70-90-yillar oralig‘ida sanoat va kimyo ishlab chiqarishining kengayishi ekologik tizimlarga tushayotgan bosimning izchil ortib borishiga olib keldi. Ayniqsa kimyo sanoatining ulushi tezroq sur‘atlarda o‘sib, atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli

moddalarning hajmi va tarkibi murakkablashdi. Bu holat ekologik muammolarning kuchayishida ishlab chiqarish tuzilmasining muhim omilga aylanganini ko‘rsatadi. Ekologik bosimning sezilarli oqibatlari atmosfera havosida namoyon bo‘ldi. Zararli gazlar va chang chiqindilarining ko‘payishi havoning sifatini yomonlashtirib, aholi salomatligi va yashash sharoitlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Suv resurslari ham sanoat va kimyo chiqindilari ta‘sirida izchil tanazzulga uchrab, suv muhitining ifloslanishi qishloq xo‘jaligi va tabiiy ekotizimlar barqarorligini zaiflashtirdi.

Qishloq xo‘jaligi tizimlari ekologik muammolarga nisbatan kechroq, ammo barqaror salbiy ta‘sir ostida qoldi. Umuman olganda, ishlab chiqarish o‘sishi bilan ekologik barqarorlik o‘rtasida muvozanat ta‘minlanmagan bo‘lib, bu sovet davri iqtisodiy siyosatining muhim tizimli kamchiliklaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мардиев М. Кимнинг номидан сўзлаяпсиз? // Ёш ленинчи. 1990. 25 октябрь. № 204. – Б.2.
2. Кенжабоев Б. Ҳавога ўрлаётган захар // Қишлоқ ҳақиқати. 1988. 21 январь. № 17. – Б.4.
3. О‘zbekiston Milliy Arxivi. R 88-fond, 13-ro‘yxat, 7864 - ish, 11- varaq.
4. Navoiy viloyat davlat arxivi. Sh1-fond, 1-ro‘yxat, 337-ish, 57-varaq.
1. Ҳайдаров И. Қайта куриш сиёсатининг Ўзбекистон саноатига таъсири ва оқибатлари (1985-1990 йиллар) // ҚарДУ хабарлари. 2018. – № 4. – Б.42.
2. О‘zbekiston Milliy Arxivi. R 837-fond, 41-ro‘yxat, 5660-ish, 134-varaq.
3. Navoiy viloyat davlat arxivi. Sh1-fond, 1-ro‘yxat, 337-ish, 59-varaq.
4. Levitanus A. Saving the Aral Sea // Journal of Environmental Management. 1992.vol. 36. – P.194.
5. Лапкин К., Рахимов Э. О мерах по снижению отрицательных социально-экономических последствий усыхания Аральского моря // Общественные науки в Узбекистане. 1981. – №1. – С.64.
6. Аминов А. Денгиз қайта тикланади // Қишлоқ ҳақиқати. 1988. 12 июнь. № 133. – Б.3.
7. Раҳматов К. Бойлик хавф остида // Қишлоқ ҳақиқати. 1990. 28 январь. № 24. – Б.3.